



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

EMOTIV FRAZEMALARDA EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

Vafoeva Muxayyo Yuldosheva

Samarqand Davlat Universiteti Filologiya fakulteti f.f.n., dotsent,

muxayyovafo@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179196>

Annotatsiya. Maqolada emotiv frazemalarda ekspressivlikning ifodalanish masalasi yoritilgan. O'zbek tilida ko'pgina frazeologizmlar semantik strukturasi ekspressivlikni ko'rsatuvchi "eng, juda, ortiq, g'oyat(da), nihoyatda" kabi kuchaytiruv semalar mavjudligi aytib o'tilgan. Ekspressivlik faqatgina frazema semantik strukturasi ekspressivlikning mavjudligiga bog'liq emas. Shuningdek, frazema tarkibidagi fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik vositalar ekspressivlikning kuchayishiga olib kelishi badiiy asarlardan olingan misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazema, frazeologik birlik, ekspressivlik, semantik struktura, fonetik o'zgarish, leksik, morfologik, sintaktik usul.

Kirish qismi. Tilshunoslikda ekspressivlik fikr ifodaning ta'sirchanligini oshirish maqsadida til birliklaridan semantik, uslubiy foydalanish hisoblanadi. Ekspressivlik adresantning voqelikka, nutq mazmuniga hamda nutq qaratilgan shaxs – adresatga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatining hosilasi sifatida amalga oshadi. Barcha til sathlari birliklari uchun ekspressivlik xos.

Tilshunos olim A.Abdullayev "O'zbek tilida ekspressiv-emotsionallik ifodalashning fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik usullari"ni [1.3] belgilagan bo'lsa, prof.B.Yo'ldoshev "ibora tarkibida fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlar ekspressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi" [4.96] deya ta'kidlaydi.

Ma'lumki, shaxslar og'zaki va yozma muloqot jarayonida nutqiy vaziyatga bog'liq holda tilda mavjud barcha birliklardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bunda so'zlovchi yoki ijodkor nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi, o'z fikrlarini to'g'ri va aniq tushunilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi so'z va frazemalardan tanlab oladi, chunki frazemalarning asosiy qismi "nutqda ma'lum stilistik maqsadlar. ayniqsa, ekspressivlik uchun xizmat qiladi" [1.36]. Emotiv frazeologik birliklar ma'no va vazifasi jihatdan turlicha bo'lishi mumkin: shaxslarning fe'l-atvori, xarakter xususiyatini, fikr-kechinmalari, predmet, holatni ifodalaydi, badiiy asar tilida uslubiy bo'yoq, kuchaytirish, bo'rttirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Asosiy qismi. Yuqorida qayd qilingan, ya'ni fonetik, leksik va grammatik vositalardan tashqari o'zbek tilidagi ko'pgina frazeologizmlarning semantik strukturasi ekspressivlikni ko'rsatuvchi kuchaytiruv semalari mavjud bo'ladi:



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

– Otlarni olib chiqaveringlar. Mehmon shoshib turibdilar. Gapimiz ham bitdi, – dedi Abdurahmon tabib unga javoban.

Cholning bu gapi Kesakpolvonning nazarida behurmatlik chegarasidan ham o'tib ketib, chinakamiga achchiqlandi.

– Siz yaxshi ish qilmayapsiz. Agar xohlasak, mashinaga bosib olib ketishimiz ham mumkin. Biz bilan o'ynashmang.

Bu po'pisadan cholning ham *g'azabi qaynadi*. (T.Malik) Mazkur matndagi "g'azabi qaynadi" frazemasini muallif nutqida shaxsning kechin g'azablanish holatini ifodalash uchun qo'llangan. Bu frazema shunchaki "g'azablanish emas, balki ortiq darajada, qattiq g'azablanish"ni obrazli ifodalaydi.

Yoki "katta baxtsizlikka yo'liqmoq, xarob bo'lmoq" ma'nolarini anglatuvchi "sho'ri kuydi" frazemasining semantik strukturasi ham kuchaytiruvchi (katta) sema mavjud: "Kuydi-kuydi – ayolimni tani kuydi. Kuydi-kuydi – meni *bag'rim kuydi*. Kuydi-kuydi – bolalarimni *sho'ri kuydi*. (T.Murod)

Berilgan misollardan ko'rinadiki, ko'pgina frazeologizmlar semantik strukturasi ekspressivlikni ko'rsatuvchi "eng, juda, ortiq, g'oyat(da), nihoyatda" kabi kuchaytiruvchi semalar mavjud. Bu semalardan tashqari frazemalarda ekspressivlikning kuchayishiga olib keluvchi quyidagi vositalar mavjud:

1) frazemalarda fonetik o'zgarish tufayli ekspressivlikning kuchayishi:

a) unlini cho'zish orqali: Bu alanga tillarigacha oq. Faqat ba'zi-ba'zida, alanga lovullab ko'tarilganda uning oppoq yog'dusi uzra ko'kish uchqunlar porlab ketadi-yu, so'ng darhol so'nadi. Shunda go'yo oq alanga mening *yuragimda lovullab keetganday* bo'ladi. (N.Eshonqul)

b) undoshlarni ikkilantirish orqali: O'zingiz *uchchiga chiqqan* g'arazgo'ysiz-u, meni g'arazgo'y deb tuhmat qilasiz. Men endi bildim sizni! (P.Qodirov)

s) undoshlarni qator keltirish bilan:

Ko'zimdan yosh oqar yuzingdan o'psam,
Qaniydi bir umr poyingda cho'ksam,
Dilingga dilimni dardini to'ksam –

Vodiysidan ajrab qolgan vohangman. (M.Yusuf) Berilgan misolda faqat undoshlar qator keltirilib qolmasdan, balki "dil" leksemasi ham qavatlanib qo'llangan.

d) sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: Kundalik yugur-yugurlar... umr kitobining qarddon sahifalari edi, bularning barchasi uning hayoti edi. Mana endi daf'atan fikrsiz, o'ysiz qoldi, *yuragi bo'm-bo'sh*, unda faqat g'ashlik va og'riq hukmron. (X.Sultonov)



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

2) frazemalarda morfologik vositalar tufayli ekspressivlikning kuchayishi: Boshlari g'uvillab, o'zlarini majolsiz his qildilar. Ko'z o'nglari g'imirladi. Oydinlar to'liqinday chayqaldi. Oydinlar to'liqinday mavjlandi. Bobomiz xasta *qalblari o'rtandi*, g'arib *qalblari o'rtandi*. Ko'zlari yoshga to'ldi. Ko'z yoshlari o'zday oppoq soqollariga sizib tushdi. (T.Murod) Berilgan misolda "qalbi o'rtandi" frazemasida "qalbi" komponentiga -lar affiksining qo'shilishi hamda gapda iboralarning takror qo'llanishi – hamkorlikda ekspressivlik ta'sir kuchini oshirgan.

Vaqt shom edi. Botir firqani *ko'ngli... shomdan-da shom bo'ldi*. Botir firqani *ko'ngli... shomdan-da ma'yus bo'ldi*, *shomdan-da mungli bo'ldi*. (T.Murod) Muallif Botir firqaning "g'amgin bo'lish" holatini shom vaqti – kechki paytga, oqshomga qiyoslab, ikki predmet (vaqt va ko'ngil) belgisi o'zaro chog'ishtiriladi. G'amginlik holatini bosqichma-bosqich kuchaytirish maqsadida "ko'ngli ... shomdan-da shom bo'lmoq", "ko'ngli ... shomdan-da ma'yus bo'lmoq", "ko'ngli ... shomdan-da mungli bo'lmoq" frazemalarining komponentlari tarkibidagi grammatik vosita (shomdan-da)ning aynan takrori o'ziga xos gradatsiyani hosil qilgan.

Gradatsiya (lot.gradatio – bosqichma-bosqich kuchaytirish) nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini (mazmunini) kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon. [7.31]

3) frazemalarda leksik vositalar tufayli ekspressivlikning kuchayishi:

Bu muloyim-mushtipar kampirni eslaganda Adash Karvon vujudini hali-hanuz andak alamli va armonli bir hissiyot cho'lg'ab oladi, *qorong'i ko'ngli ko'klam kunlaridek yorishib ketadi* (X.Sultonov). Berilgan misolda "ko'ngli yorishmoq" frazemasining "ko'ngil" komponentini aniqlab, izohlab keluvchi "qorong'i" leksemasi, ibora komponentlari tarkibiga "ko'klam kunlaridek" o'xshatishli so'z birikmasi kiritilib, individual-ijodiy kengaytirilgan. Natijada frazemaning strukturasi kengayib, semantik ekspressiv bo'yoqdorligi ortib borgan.

Ekspressivlikni oshiruvchi leksik vositalar tahlili davomida ko'rish mumkinki, frazema komponentlari tarkibi badiiy matnlarda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

a) frazemaning semantik tayanch komponenti takrorlanadi: Vo darig'o, bu qandaychikin kishnash bo'ldi? Kishnash *ko'ngil-ko'nglimni o'yib yubordi*, *vujud-vujudimni qaqshatib yubordi*. Tanamdagi og'riqlar-da bilinmay qoldi. (T.Murod)

b) frazemaning grammatik tayanch komponenti takrorlanadi: Nasibbekdan – jo'ralarning begidan daf'atan ayrilib qolgan, ko'pchiligi ilk bora o'lim ko'rayotgan yigitlar, *yuraklari to'kila-to'kila*, ko'zlarini arta-arta, ichkari hatladilar. (X.Sultonov). Mazkur gapdagi "yuragi to'kilmoq" frazemasida "dili og'rib, ezilib turibdi"(O'TIL-4,



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

232) ma'nosini anglatadi. Grammatik tayanch komponent – ravishdosh forma (to'kila-to'kila)ning takrorlanishi frazemaning ma'no strukturasi "juda qattiq, ortiq darajada" semasini ta'kidlash uchun xizmat qilgan.

s) frazemaning har ikkala komponenti takrorlanadi: Birodarlar, kuygan – o'lanchi bo'ladi, suygan – laparchi bo'ladi? O'z-o'zidan kuyib-kuyib, *ich-ichimdan kuyib-kuyib*, kenjamizni suyib-suyib, o'lanimni aytib qo'ya berdim. (T.Murod)

d) frazemaning semantik tayanch komponenti juft so'z bilan ifodalanadi: Diydor quvonchi va ayriliqlar azobi, mubham dard iztirobi-yu umidvor dil o'rtanishlari bilan kechgan keyingi kunlarning bir-bir xayolidan o'tkazarkan, Sulton *yurak-bag'ri to'kilib*, uyini, farzandlarini, Zumradni chidab bo'lmas darajada sog'inganini his qildi. (X.Sultonov)

e) frazemaning komponentlari juftlashib keladi: Nazarimda, u buyuk va adadsiz musibat sohibiday tuyuldi, uning qiroatli ovozi dilimni *shaydo-oshufta qildi-qo'ydi* — qiroat yerniki emas, bu so'zlar odamniki emas edi: qiroatda ham, uning yolg'izligida ham, sajdasi ham qandaydir ilohiyat mujassam edi. (N.Eshonqul)

4. Ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli.

a) sinonim yoki yaqin ma'noli frazemalar gap tarkibida uyushib keladi: Ulug' kampir dunyodan xotirjam *ko'z yumgan edi*. "Nom-nishonim o'chmas, yolg'iz bo'lsa ham, orqamda chirog'imni yoqadiganim qolyapti-ku", degan o'y bilan *oyoq uzatib, mangu taskin va mangu farog'at topgan edi*. (X.Sultonov);

b) Botir firqa kofe ichadi. Bu safar kofe ichmadi. Uyquasi birdan ochildi. Tanjoni jim-jim etdi. Vujud-vujudi lov-lov etdi. *Ich-ichi qizidi*. Botir firqani *ko'ngli... kuldi*. Botir firqani *yuzi... kuldi*. (T.Murod)

s) frazemalarda inversiya: – Kechroq enam, bobongning mol-hollariga qarayin deb, darichadan qaytib keldi. O'zlari qarayotgan ekanlar, *vayron ko'ngillarini* battar vayron qilmayin deb bormadim, dedi. (T.Murod)

d) frazemalarda ellipsis: *Yuzlarida, ko'ngillarida yorug' tabassum o'ynadilar*. – Hay-hay-hay... – deya pichirladilar.

– Bunday bemahalda qolib ketmasdilar-ku? – dedi oshiq. (T.Murod)

Xulosa qismi. Yuqorida keltirilgan faktlar, misollar tahlilidan shuni aytish mumkinki, ekspressivlik nutqni ta'sirchan, yorqin, jozibali qiluvchi vositalar hisoblanadi. ko'pgina frazeologizmlarning semantik strukturasi ekspressivlikni ko'rsatuvchi kuchaytiruv semalari mavjudligi bilan xarakterlidir. Shu bilan birga frazema komponentlari tarkibida fonetik, leksik, grammatik hamda nolisoniy vositalar ekspressivlikni ifodalash usullari sanaladi.



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Shunday qilib, frazemalarning uslubiy jihatdan qo'llanishi bir vaqtning o'zida bir necha uzual va okkazonal funksiyani bajarishi bilan xarakterli. Ular nutqning ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga uni obrazli, emotsional bo'yoqdor qiladi, shuning uchun ham frazemalar tilning bebaho boyligi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев А. Фразеологизмларнинг экспрессивлик хусусияти //Ўзбек тили ва адабиёти, 1976, № 5.36-39-б.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент, Фан нашриёти, 1987, 89-б.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент, Мухаррир нашриёти, 2013, 282-б.
4. Йўлдошев Б., Рашидова У.Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси . – Тошкент, Наврўз нашриёти ДУК, 2016, 89-б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати . – Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1992, 321-б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, I-V жилд, 2006-2008.
7. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти,